

“Qutadg’u bilig” asaridagi diniy atamalar na’munalari va ularning ingliz tiliga tarjima qilish muammolari

Ismailova Gulnoza Odiljon qizi

Namangan Davlat Universiteti tayanch doktoranti

e-mail: gulnozaodilovna97@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqola XI asrda yashab, ijod qilgan buyuk mutafakkir Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” asari va uning turli tillarga tarjimasi haqida ma’lumot beradi. Maqolada asardagi diniy atamalarning ingliz tiliga tarjima qilish jarayonidagi o’ziga xos jihatlar alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so’zlar: Yusuf Balasag’un, Qutad’gu bilig, diniy atamalar, tarjima muammolari, asliyat tili, tarjima tili, tarjimada adekvatlik.

Examples of religious terms in Qutadg’u bilig and problems of their translation into English

Ismailova Gulnoza Odiljon qizi

Phd student at Namangan state university

e-mail: gulnozaodilovna97@mail.ru

Annotation: This article gives some insight into one of the most famous antique work named “ Qutadgu bilig” by Yusuf Xos Hojib who lived in XI century. One can also find out about the translations of this work into other languages. Translation of religious terms into English language and unique features of this process has been discussed in the article.

Key words: translation problems, religious terms, Wisdom of Royal glory, Target language, source language

Примеры религиозных терминов в Кутадгу Билиг и проблемы их перевода на английский язык

Исмаилова Гульноза Одилжон кизи

докторант Наманганского государственного университета

Аннотация: В данной статье дается некоторое представление об одном из самых известных античных произведений под названием «Кутадгу билиг» Юсуфа Хос Ходжиба, жившего в XI веке. Также можно узнать о переводах этого произведения на другие языки. В статье рассматривается перевод религиозных терминов на английский язык и особенности этого процесса.

Ключевые слова: проблемы перевода, религиозные термины, язык перевода, язык оригинала.

Kirish

XI asrda yashab, ijod qilgan, o'zining ilmiy salohiyati, badiiy tafakkuri bilan olam ahlini hayratga solgan, buyuk mutafakkir Yusuf Xos Hojibning dunyoga mashxur "Qutadg'u bilig" asari necha asrdirki tilshunoslar, adabiyotshunoslar, turkiyshunoslar va qo'yingki butun dunyo siyosatshunos hamda san'atsevarlari e'tiborini tortib kelmoqda. Asar haqida qisqacha ma'lumot beradigan bo'lsak, "Qutadg'u bilig" asari davlat boshqaruvidagi yo'riqnoma yoki nasihatnoma sifatida yozilgan. Ma'lumki asarning hozirgacha uch nusxasi topilgan. Ular: Qohira nusxasi, Namangan nusxasi va Vena nusxasidir. 13000 misradan iborat bunday shox asar hozirga qadar ko'plab tillarga tarjima qilingan. Asarning dunyoga tanilib, adabiyotshunoslar qalbidan va nufuzli kutubxonalaridan joy olishida esa tarjima san'atining ahamiyati katta bo'lgan. Mazkur asar bir nechta turkiy xalqlar tillariga shunigdek ingliz, nemis, rus, kabi jahon tillariga ham tarjima qilingan.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

Ma'lumki, bu asarning ingliz tiliga tarjimasi ikki ijodkor Robert Dankoff hamda Walter May tomonidan amalga oshirilgan. Asarning asl ma'nosini kitobxonga yetkazib berish uchun ushbu tarjimalar ustida ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Qutadg'u biligni jahon olimlari tomonidan tadqiq etrila boshlanganiga ham uch asrdan oshdi. Bu borada yirik turkiyshunos olimlar H.Vamberi, V.Radlov

A.Samoylovich, S. Malov, S. Ivanov, R. Arat, R. Dankoff larning xizmatlari alohida alohida tahsinga loyiq.[3]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada diniy atamalar ingliz tiliga tarjimasiga alohida to'xtalib o'tilgan. Bilamizki, diniy atamalar tarjima jarayonida tarjimondan o'zgacha mahorat talab qiladi. Chunki u oddiy termin emas, u muqaddas diniy so'zdir. Diniy so'zlar milliy koloritni ifodalovchi juda muhim bir qismidir. Bejizga Ergash Ochilov "Badiiy tarjima masalalari"[1] nomli o'quv qo'llanmasida milliy koloritni saqlashni "muammolarning muammosi" deb atamagan. Asliyatdagi mazmun-mohiyatni tarjima tiliga olib o'tish oson ish emas va qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. "Qutadg'u bilig" asari islom diniga oid ko'plab atamalarni o'zida jamlagan. Asar pandnoma tarzida yozilgani bois uni o'qish jarayonida o'quvchi ko'plab diniy atamalarga duch keladi. Asarning ingliz tiliga tarjima nusxasida ba'zi bir murakkab o'ziga xosliklarni uchratishimiz mumkin. Xususan arab tili hamda ingliz tilining turli til oilalariga mansubligidir. Bu esa ikki farqli til, ikki farqli madaniyat va din demakdir.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Muammoni yaxshiroq yoritish uchun Qutadg'u bilig asaridagi ba'zi so'zlar tarjimasiga to'xtalib o'tamiz. Asarning 39-baytida quyidagicha diniy so'zni uchratamiz:

“Qamug’ qadg’usi erdi **ummat** uchun,

Qutulmaq tiler erdi rahat uchun”

Hamma qayg’usi **ummat** uchun edi,

U ummatning uqubatdan qutulishini va rohatini tilar edi [9]

R. Dankoff tarjimasida bu bayt quyidagicha tarjima qilingan:

All his care was for **his “community”**, their comfort and their salvation. [4]

Mazmuni: Uning borki e'tibori jamiyati uchun edi, uqubatdan qutulishini hamda ularning rohatini o'ylar edi.

“Ummat” so’zi o’zbek tilining izohli lug’atida[7] “Madinada Muhammad payg’ambar izidan borgan va islom dinini qabul qilgan kishilar jamoasi” kabi izohlangan. R. Dankoff tarjimasidagi “community” so’zi (**the people living in one particular area or people who are considered as a unit because of their common interests, social group, or nationality**)[2]. (ya’ni ma’lum hududda yashovchi, qiziqishlari hamda ijtimoiy kelib chiqishi va millatiga ko’ra birlashgan jamoa degan ma’noni beradi) “Community” so’zi tarjimada tog’ri tanlangan bo’lsada ayni musulmonlar his qiladigan tom ma’noli “**ummat**” so’zini o’zida aks ettira olmaydi.

Ayni shu baytda Walter May[5] tarjimasida esa “ummat” so’zi butkul ishlatilmagan va “**you**” ya’ni “sen” so’zi bilan alishtirilgan.

“He thought of **your** pastures, your needs and your cares”. Mazmuni: u sening hayotingni, ehtiyojlaringni va ehtiyotingni o’yladi.

Bu tarjimada ham to’liq ekvivalentlik yo’q va asliyatdagi mohiyat ochib berilmagan. Agar shu o’rinda mening fikrimcha deskriptiv tarjima usulidan foydalanib “followers: especially of Prophet Muhammad” ya’ni aynan “Muhammad payg’ambarga ergashuvchilar” kabi so’zni izohi bilan keltirilganda asliyatga yaqinroq ma’no kelib chiqar edi.

Yana bir misolga yuzlanamiz:

380. Tilimni bezedi **tanuqluq** bile

Q. Karimov tarjimasi : Tilimni **shahodat** bilan bezadi

R. Dankoff tarjimasi : He adorned my tongue with **witness**

W. May tarjimasi : Gave to my speech the true **witness’ part**

Har ikkala inglizcha tarjimada ham “witness” ya’ni “guvohlik bermoq” so’zidan foydalanilgan. Asliyatda ko’zlangan ma’no esa islom dinining besh asosiy ruknidan biri bo’lmish kalimai shahodat ya’ni “Allohdan o’zga iloh yo’q, Muhammad uning rasulidir”[6] degan kalimani ham til bilan ham dil bilan guvohlik berish edi. Ingliz tilidagi tarjimada esa sayoz olingan oddiy “**witness**” ya’ni

“guvohlik bermogʻ” soʻzi qoʻllanilyapti. Natijada esa asarni ingliz tilida oʻquvchiga bu baytning asl diniy mohiyati yetib bormaydi. Nazarimizda, ayni shu soʻzni asliyat holicha qoldirib yani transliteratsiya qilib, qoʻshimcha izoh berilganda asl mano-mazmun saqlanib qolar edi. Yana bir misol 390-baytda eʻtiborni tortadi:

Qamugʻ moʻminigʻ sen tuzu yarliqa

Yarinqi baqalin bu kun qil liqa

390. Barcha moʻminlar jumlasini sen oʻzing yorlaqagin

U dunyolik boqiy hayotdan bu kun nishona ber.

Yuqoridagi misralarda u dunyolik boqiy hayot deya oxirat dunyosiga ishora qilinmoqda va bu oʻz oʻzidan islom diniga xos boʻlgan yagona jihatlardan biri. R.Dankoff tarjimasida “let them witness today the eternal presence of tomorrow” yaʼni “ularni ertaning tuganmas borligi bilan guvoh qil” tarzida tarjimasini koʻrishimiz mumkin. Ertaning tugamas borligi deya shu yaqin kelajakdagi vaqtga ishora qilinyapti va bu baytda oxirat yoki narigi dunyo kabi maʼnolardan butkul yiroq. Ayni shu baytning Walter May tarjimasida esa

Then pardon, Lord, all true believers their sins,

In order that each to eternal life wins.

Mazmuni: barcha senga chindan eʻtiqod qilganlarning gunohlarini kechirgin, toki hayot abadiy boʻlsin. Koʻrinib turibdiki Mayning tarjimasi ham narigi dunyo, oxirat kabi tushunchalardan biroz yiroq.

Xulosa

Xulosa oʻrnida oʻzbek tarjima maktabi asoschisi boʻlmish tarjimashunos olim Gʻaybullo Salomovning fikrlarini keltirmoqchiman. “Tarjima jarayonining mohiyati asl nusxada aks etgan shakl bilan mazmunning birligini, yaxlitligini saqlash uchun boʻlak tildan muqobil vositalar qidirib topishdan iborat. Bundan tashqari asl nusxa mazmunini boshqa tilda berishning mavjud bir necha imkoniyatlari orasida eng muqobil va muvofiq variantini tanlash ham adekvat tarjimaning asosiy talablaridan

biri hisoblanadi”.[8] Diniy atamalar tarjimasi ham adekvat tarjimaga erishish uchun har doim tarjimondan chuqur bilim va tafakkur, uzoq izlanish, diniy bilim va o'z o'rnida o'sha davr va makon madaniyati haqida chuqur tasavvur sohibi bo'lishni talab qiladi. Ayniqsa “Qutadg'u bilig”dek asarni dunyo o'quvchilariga o'z mohiyati bilan tanishtirish uchun tarjimon undagi diniy so'zlarni tarjima jarayonida diniy so'zlarning izohli lug'atidan foydalanib, ma'nosini to'liq o'rganib chiqib, so'ngra tarjima qilishlari lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.Ochilov "Badiiy tarjima masalalari"-Toshkent, 2014.
2. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/community>
3. “Qutadg'u bilig to'rtliklarining inglizcha badiiy tarjima xususiyatlari. Q.Sidiqov. Toshkent – 2014
4. Yusuf Has Hajib. “Wisdom of Royal Glory” Translation with an Introduction and Notes by Robert Denkoff. The University of Chicago Press, - Chicago: 1983.
5. Yusuf Balasaguni. Beneficent Knowledge // Translated into English by Walter May. – Moscow-Bishkek: 1998.
6. ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati
7. O'zbek tilining izohli lug'ati, -M.: “Rus tili” nashriyoti, 1981 y. , 2- tomi
8. G'. Salomov. “ Tarjima nazariyasiga kirish” T. ‘ O'qituvchi” nashriyoti 149p.
9. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадгу билиг (Саодатга йўлловчи билим), транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. Нашрга тайёрловчи Қ. Каримов. - Тошкент: Фан, 1971.